

## IJTIMOY HAYOTDA LIDER SHAXSINING PSIXOLOGIYASI

**Murodova Maftuna Orif qizi**

O‘zbekiston Respublikasi Jamoat Xavfsizligi Universiteti

E-mail: [maftunamurodova721@gmail.com](mailto:maftunamurodova721@gmail.com)

### ANNOTATSIYA

Ushbu maqolada lider shaxsining psixologiyasi va ijtimoiy hayotdagi ahamiyati va rahbar shaxsi bilan lider o‘rtasidagi farqlar hamda bugungi kunda liderga quyiladigan zamonaviy talablar ochib berilgan.

**Kalit so‘zlar:** psixologiya, temperament, emotsional holat, lider, rahbar.

### THE IMPORTANCE OF A LEADER IN SOCIAL LIFE

#### ABSTRACT

This article reveals data regarding the psychology of the leader, its importance in a social life, the differences between a manager and a leader, and the modern requirements placed on a manager today.

**Key words:** psychology, temperament, emotional state, chief, leader.

Liderlik-(ingilizcha; leader-yetakchi boshlovchi so‘zidan)- Umumiy bir ishni bajarishda boshqalarning yordami va harakatini birlashtiruvchi ijtimoiy ta’sir jarayoni hisoblanadi. Lider guruhning aksariyat a’zolari tomonidan tan olingan shaxsdir. Psixologiyada esa, jamoaning rasmiy tizimida yuqori mavqeini egallovchi xodim rahbar bo‘lib hisoblansa, norasmiy tizimda yuqori mavqeili shaxs –liderlikdir. Lider hech qachon yolg‘iz qolmaydi, u doimo guruh a’zolari bilan birga bo‘ladi va guruh a’zolarini harakatlarga chorlaydi. Chunki lider shu guruh a’zolarining psixologiyasi, ularning kayfiyatlari, temperamenti, qiziqishlari, intilishlari, va boshqa fazilatlarini

juda yaxshi biladi. Bundan tashqari har qanday lider guruh a'zolari ichida obro'ga ega bo'ladi. Obro'liylik shaxsning shunday xususiyatiki, u boshqa shaxslarga ham hissiy-emotsional, ham irodaviy ta'sir ko'rsata olish qobiliyatiga egadir. Xodimlarko'ngliga yo'l topish, ularni turli vaziyatlarda tushuna olish, ularni ishonchiga kirish va shunga o'xshash bir qancha omillar obro' orttirish mezonlaridir. Lider aslida, tashkelotchi, tashabbuskor, jamoaning his-hayajon holatini boshqaruvchi, bilag'on, har tomonlama yetuk va eng asosiy jamoani ergashtira biladigan shaxs hisoblanadi. Har bir tashkelotta yoki guruhda liderlar mavjud. Guruh rahbarlari doimo liderlar bilan hamkorlikda ish ko'radilar. Har qanday rahbar lider bo'laolmaydi, lekin liderlik xususiyatlarini o'zida mujassam qilgan shaxs rahbar lavozimida ishlay oladi. Lider guruh a'zolari har doim nima istayotganini va xohishlarini biladi. Lider ayniqsa, jamoada axloq normalari saqlanishiga e'tibor berishi va guruh a'zolari sha'niga biron nojo'ya gap tekkizmaslikka e'tibor beradi. Liderda o'z o'zini boshqarish xususiyati yuqori sanaladi. Lider guruhda ham guruhdan tashqari holatta ham mustaqil fikrga ega bo'gan shaxsdir. Liderning boshqa guruh a'zolaridan eng katta farqi uning guruh a'zolarini psixologiyasini bilishi va hodimlarni boshqara olish qobiliyati mavjudligidir. Lider tushunchasiga ta'rifdan keyin lider bilan rahbar shaxs o'rtasidagi farqni ham ajrata olish lozim hisoblanadi. Lider asosan guruhdagi shaxslararo munosabatlarni boshqarsa, rahbar esa shu guruhdagi rasmiy munosabatlarni boshqaradi. Liderlik betartib jarayon hisoblanadi, rahbarlik maqsadlarga qaratilgan jamiyatda ishlab chiqilgan normalar asosida sodir bo'ladigan jarayon hisoblanadi. Liderlik rahbarlikka nisbatan vaqtinchalik hodisa hisoblansa rahbarlik esa faoliyat yo'nalishiga qarab uzoqroq davom etishi mumkin. Rahbarning liderdan farqi yana shundaki, u liderda yo'q rag'batlanish va jazolash tizimiga ega bo'lib, shu asosda xodimlarga o'z ta'sirini o'tkazishi mumkin. Bulardan tashqari rahbar va lider o'rtasida yana bir qancha farqlar mavjuddir. Har bir lider yoki rahbar o'zicha individual va takrorlanmasdir. Buning boisi har bir zamonaviy boshliq faoliyatini o'ziga xos tarzda tashkel etishidadir. Lider bosh bo'lgan ishlarning samaradorligi yuqori bo'lib, ishlab chiqarishlari ham oshib boradi. Lekin jamoadagi ma'naviy-psixologik muhit og'ir, tang bo'lib, bu narsa odamlarning

jamoadan, ishdan qoniqmaslik hislarini ortishiga olib keladi. Shunday ekan har qanday lider rahbar lavozimida ish olib borganda ham, rahbarda bor xusiyatlarni ham liderda bor xusiyatlarni o‘zida mujassamlashtirishi lozim hisoblanadi. Taraqqiyot ehtiyoji inson va tabiat uchun xos xusiyatlardan sanaladi. Mustaqillikning dastlabki yillaridanoq O‘zbekistonda inson omili, shaxs taraqqiyoti masalasiga katta ahamiyat berilmoqda. Bugungi kunda liderga qo‘yiladigan zamonaviy talablarni shunday ifodalasak joiz hisoblanadi. Mustaqil fikrlash salohiyatiga ega bo‘lishi va xalq va davlat manfaatlarini bilan uyg‘unlasha olishi. Mas’uliyatli va chuqur bilimga ega bo‘lishi. Vatanni chin dildan sevishni namoyon etisha olishi lozim hisoblanadi. Bundan tashqari eng asosiysi jadal o‘zgarayotgan dunyoning xarakatlantiruvchi kuchlarini teran anglashi va ijtimoiy voqeilik jarayonlarini oldindan ko‘ra bilishidir. Rahbar yoki lider jamiyat oldidagi burch hamda vazifalarini chin dildan his etishi, o‘z-o‘zini ijtimoiy ma’naviy anglashi, buyuk maqsadlar, bunyodkorlik ishlariga qalban tayyor turishi lozim hisoblanadi.

Xulosa o‘rnida shuni aytishimiz lozimki, haqiqiy lider bu doimo jamoada faol o‘z manfaatlaridan ko‘ra ko‘proq guruh a‘zolari yoki xodimlar manfaatlarini ustun qo‘yadigan, ularni ko‘ngliga qarab ish tuta oladigan, so‘zini o‘tkaza oladigan qisqa so‘z bilan aytganda jamoani ergashtira oladigan shaxsga aytiladi. Tashkelotda har qanday rahbar lavozimida ishlayotgan shaxs har doim liderlar bilan jamoani boshqaradilar. Demak ijtimoiy hayotda liderning ahamiyati juda katta hisoblanadi.

### **Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati (REFERENCES)**

1. X. A. Muxitdinov "Boshqaruv Nazariyasi" Cho‘lpon nomidagi nashriyot-matbaa ijodiy uyi Toshkent -2012
2. Karimova V.M. Xayitov O.E. Djalolova S.M "Boshqaruv psixologiyasi" fan va texnologiya nashriyoti - 2008